

О‘ZBEK SHEVALARINING O‘RGANILISHIDA TARIXIY BOSQICHLAR TAHLILI

Oringalieva Nurjayna Orazgalievna

Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti

2-kurs talabasi

O‘qituvchi: Ibragimova Zamira Yuldashevna

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek shevalarining o‘rganilish tarixi, uning shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. O‘zbek shevalarining dastlabki manbalari qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlangan. O‘zbek shevalari ilmiy izlanishlar asosida rivojlanganligi ilmiy asosda yoritiladi. Turkiyshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, o‘zbek shevalarining tasnifi, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganishdagi yondashuvlarning milliy adabiy til shakllanishidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sheva, tasnif, tahlil, bosqich, dialekt, lahja.

Аннотация: В данной статье анализируется история изучения узбекских диалектов и этапы их формирования. Первые источники изучения узбекских диалектов восходят к древнетюркским письменным памятникам. Научные исследования показали, как развивались узбекские диалекты. Рассматриваются исследования, проведённые тюркологами, классификация узбекских диалектов, подходы к изучению их фонетических, лексических и грамматических особенностей, а также роль диалектов в формировании национального литературного языка. Изучение узбекских диалектов рассматривается с древнетюркского периода, XIX века, XX века и периода независимости, включая

подходы и классификации. Исследование показывает, что узбекские диалекты как лингвистическое богатство имеют теоретическое и практическое значение в языкознании.

Ключевые слова: диалект, классификация, анализ, этап, диалект, говор.

Abstract: This article analyzes the history of the study of Uzbek dialects and the stages of their development. The earliest sources of Uzbek dialects date back to Old Turkic written monuments. Scientific research has shown how Uzbek dialects have evolved. The article examines studies conducted by Turkologists, the classification of Uzbek dialects, approaches to studying their phonetic, lexical, and grammatical features, and the role of dialects in the formation of the national literary language. The study of Uzbek dialects is considered from the Old Turkic period, the 19th century, the mid-20th century, and the period of independence, including approaches and classifications. The research indicates that Uzbek dialects, as a linguistic treasure, have both theoretical and practical significance in linguistics.

Keywords: dialect, classification, analysis, stage, dialect, vernacular.

Bugungi kunda o'zbek shevalari milliy tilimizning boyligini saqlovchi va hududiy farqlarni aks ettiruvchi muhim lingvistik manba sifatida katta ahamiyatga ega. Shevalarni o'rganish nafaqat fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi, balki ular orqali xalq madaniyati, tarixiy ildizlar va adabiy tilning shakllanish jarayonlarini ham chuqurroq tushunish mumkin. Zamonaviy davrda hududiy nutqning o'ziga xosligi, leksik boyligi va fonetik tafovutlari raqamli korpuslar, audio-video materiallar yordamida tizimli tarzda o'rganilmoqda. Shu sababli, o'zbek shevalarining o'rganilishi nafaqat tilshunoslikda, balki tarix, etnografiya va adabiyotshunoslik sohalarida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada o'zbek shevalarining rivojlanishi va ilmiy o'rganilishi qadimgi turkiy davrdan (XI–XV asrlar) boshlab, XIX asr ilmiy dialektologiyasi, XX asr o'rta davri va mustaqillik davrigacha bo'lgan bosqichlar asosida tahlil qilinadi. Har bir

davrda olimlar tomonidan qo'llanilgan metodologiya, ilmiy yondashuvlar va shevalarning adabiy til shakllanishidagi roli alohida ko'rib chiqiladi.

Tilning ichki tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan shevalar xalqning tarixiy taraqqiyoti, hududiy joylashuvi, etnik tarkibi va ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli shevalarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etnografik va madaniy ahamiyatga ham ega. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning shakllanish jarayoni uzoq tarixiy davrlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda turli hududlarda yashagan qabila va elatlarning til xususiyatlari shakllanib, hozirgi o'zbek shevalari vujudga kelgan. Buyuk turkiyshunos olim Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy qabilalar tillari va ularning farqlarini batafsil bayon qilgan. Bu asar o'zbek dialektologiyasining ilk ilmiy manbalaridan biri hisoblanadi. Keyinchalik, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida turkiy tilning boy imkoniyatlarini ko'rsatib, turli hududiy til xususiyatlari haqida muhim fikrlar bildirgan. Bu esa o'zbek tilining dialektal boyligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan buyuk mutafakkir va tilshunos hisoblanadi. Uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari turkiy tilning ilmiy va nazariy asoslarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Navoiy o'z asarlarida turkiy tilning boy leksik imkoniyatlarini ko'rsatib bergan va uning boshqa tillardan ustun jihatlarini ilmiy asosda isbotlagan. Shuningdek, uning asarlarida turli hududlarga xos til birliklari qo'llangan bo'lib, bu o'zbek shevalarining adabiy til shakllanishidagi rolini ko'rsatadi. Navoiy o'zbek tilining shevalarga boyligini amaliy jihatdan namoyish etgan va adabiy tilni rivojlantirishda shevalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining tarixiy asoslarini o'rganishda birinchi ilmiy yondashuvni qo'llagan olim hisoblanadi. Uning "Devonu lug'otit turk" asari turkiy tillarning ilk ilmiy manbasi sifatida e'tirof etiladi. Koshg'ariy turli turkiy qabilalar tilini o'rganib, ularning fonetik, leksik va grammatik farqlarini ilmiy asosda tavsiflab bergan. U dialektlar o'rtasidagi farqlarni faqat

tasvirlabgina qolmay, balki ularni qiyosiy tahlil qilish orqali ilmiy xulosalar chiqargan. Ayniqsa, turkiy tillarning hududiy farqlari, soʻzlarning turli hududlarda turlicha qoʻllanishi haqidagi maʼlumotlari bugungi oʻzbek dialektologiyasi uchun muhim tarixiy asos hisoblanadi. Mahmud Koshgʻariyning eng katta ilmiy yutugʻi shundaki, u dialektlarni mustaqil lingvistik hodisa sifatida koʻrib chiqqan va ularni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida asoslab bergan.

Oʻzbek shevalarining oʻrganilish tarixini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, dialektologik tadqiqotlar turkiyshunoslik doirasida shakllanib, keyinchalik mustaqil lingvistik yoʻnalishga aylangan. Eng qadimgi ilmiy manba sifatida Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari eʼtirof etiladi. Mazkur asarda muallif turkiy qabilalar nutqidagi fonetik va leksik tafovutlarni qayd etgan hamda ayrim dialektal farqlarni hududiy omillar bilan bogʻlab izohlagan.¹

Asarda 7500 dan ortiq soʻz birligi keltirilgani, ularning koʻpi hududiy xususiyat bilan tavsiflangani dialektologik kuzatuvlarning ilk namunasidir.² Bu esa XI asrdayoq turkiy tillarda dialekt farqlari ilmiy eʼtiborga olinganini koʻrsatadi. Keyingi bosqichda Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari oʻzbek adabiy tilining dialektal asoslarini tushunishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Navoiy turkiy tilning ichki boyligini dalillar bilan asoslab, fonetik va leksik ustunliklarini koʻrsatib beradi.³ Asarda ayrim hududiy birliklarning qoʻllanishi tilning jonli variantlariga tayanganini anglatadi.

V.V Radlov turkiy tillarni, jumladan, oʻzbek shevalarini ilmiy asosda oʻrganishda katta hissa qoʻshgan olim hisoblanadi. U turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini qiyosiy metod asosida oʻrgangan. Radlovning “Turkiy lahjalar lugʻati tajribasi” asari dialektologiyada muhim ilmiy manba hisoblanadi.⁴ U turli hududlarda yashovchi turkiy xalqlar tilini oʻrganib, ularning oʻziga xos

[1, 18-b. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. – Toshkent: Fan, 1960.]

[2, 12-b. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. – Toshkent: Fan, 1960.]

[3, 27-b. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1983.]

[4, 15-b. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1893.]

xususiyatlarini aniqlagan. Radlov o'z tadqiqotlarida o'zbek shevalarining mustaqil lingvistik tizim ekanligini asoslab bergan va ularning tasnifini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos yaratgan.

Aleksandr Samoylovich turkiy tillarni fonetik mezon asosida guruhlashni taklif etgan va o'zbek tilini qarluq guruhiga kiritgan.⁵ Bu tasnif keyingi dialektologik tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajargan.

XX asrning o'rtalariga kelib o'zbek shevalari maxsus lingvistik ekspeditsiyalar asosida o'rganila boshladi. Vladimir Reshetov o'zbek shevalarini uch asosiy guruhga ajratib, ularning fonetik va morfologik belgilari asosida tavsiflagan.⁶ Uning tasnifi hozirgi kunda ham ilmiy adabiyotlarda qo'llaniladi.

G'ani Abdurahmonov o'zbek shevalarining grammatik tizimini chuqur o'rganib, fe'l shakllari va morfologik variantlarning hududiy xususiyatlarini aniqlagan.⁷ Ayniqsa, fe'l zamon shakllarining shevalardagi variantlari adabiy til tarixini o'rganishda muhim manba ekanligi asoslab berilgan.

O'zbek shevalari tilning tarixiy rivojlanishi va xalq madaniyati aks etgan noyob lingvistik hodisa hisoblanadi. Ular nafaqat fonetik va leksik farqlarni, balki turli davrlardagi etnik va madaniy o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Shu sababli o'zbek shevalarining o'rganilishi tilshunoslik fanida muhim ilmiy masala sifatida qaraladi. Quyida tarixiy bosqichlar asosida tahlil qilinadi, qadimgi turkiy davrdan boshlab, mustaqillik davrigacha bo'lgan rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

1. Qadimgi turkiy davr (XI–XV asrlar)

Bu davrda shevalarni ilmiy asosda o'rganish boshlang'ich bosqichda bo'lgan. Eng muhim manba Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari hisoblanadi. Ushbu asarda turkiy qabilalar tillari fonetik, leksik va grammatik jihatdan taqqoslab

[5, 34-b. Самойлович А.Н. Тюркская филология. – Ленинград, 1922.]

[6, 56-b. Reshetov V.V. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1966.]

[7, 102-b. Abdurahmonov G'. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973.]

o'rganilgan. Muallif turli qabilalar tilidagi farqlarni ko'rsatgan. Alisher Navoiy ham o'z asarlarida turkiy tilning boyligini ta'kidlab, uning boshqa tillardan ustunligini ilmiy asoslab bergan. Uning asarlarida turli shevalarga oid so'zlar uchraydi, bu esa o'sha davrda ham shevalarning mavjudligini ko'rsatadi.

2. XIX asr – ilmiy dialektologiyaning shakllanish davri

Bu davrda Yevropa va rus turkiyshunos olimlari tomonidan turkiy tillar, jumladan, o'zbek shevalari ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Ayniqsa, rus turkiyshunos olimi V.V. Radlov turkiy tillarni o'rganishda katta hissa qo'shgan. U turkiy tillarning lug'atini tuzib, turli shevalarni qiyosiy tahlil qilgan. Shuningdek, Sergey Malov va Aleksandr Samoylovich kabi olimlar ham turkiy tillar, jumladan, o'zbek shevalarining fonetik va grammatik xususiyatlarini o'rganganlar. Bu davrda shevalarni ilmiy asosda tasniflashga harakat qilingan va dialektologiya mustaqil fan sifatida shakllana boshlagan.

3. XX asr o'rta davri

Bu davr o'zbek dialektologiyasining eng faol rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda o'zbek tilining turli shevalari keng miqyosda o'rganilgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tilshunoslik institutida o'zbek shevalarini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu davrda shevalar fonetik, leksik va grammatik jihatdan chuqur tahlil qilindi.

Olimlar tomonidan o'zbek shevalari quyidagi uch asosiy guruhga ajratildi:

Qarluq shevalari

Qipchoq shevalari

O'g'uz shevalari

Bu tasnif hozirgi kungacha ilmiy asos sifatida foydalaniladi.

4. Mustaqillik davri (1991-yildan keyin)

Mustaqillik davrida o'zbek dialektologiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda o'zbek tilining milliy xususiyatlarini chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Shevalarning lingvistik, etnografik va madaniy jihatlarini kompleks tarzda o'rganila boshlandi. Zamonaviy lingvistik metodlar asosida yangi tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbek shevalarining o'rganilish tarixini tahlil qilish natijasida dialektologik tadqiqotlarning tilshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanganligi aniqlandi. O'zbek shevalari tilning tarixiy rivojlanish jarayonini, xalqning etnik shakllanishini va madaniy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida o'zbek shevalari turkiy tillarning uch asosiy tarixiy guruhiga borib taqalishi aniqlangan. Xususan, qarluk, qipchoq va o'g'uz til unsurlari o'zbek shevalari tarkibida saqlanib qolgan. Bu holat o'zbek xalqining shakllanishi murakkab etnik va tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, qarluk guruhiga mansub shevalarda adabiy tilga yaqin fonetik va grammatik xususiyatlar saqlangan bo'lsa, qipchoq shevalarida qadimgi turkiy til unsurlarining ko'proq saqlanib qolganligi kuzatiladi. O'g'uz shevalarida esa ayrim fonetik o'zgarishlar va o'ziga xos leksik birliklar mavjud. Bu esa o'zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan genetik jihatdan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbek shevalari milliy tilimizning fonetik, leksik va grammatik boyligini saqlovchi asosiy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda shevalar hududiy nutqning o'ziga xosligini aniqlash, leksik va fonetik tafovutlarni saqlash va milliy adabiy tilning rivojlanish jarayonlarini tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Shevalar nafaqat xalq og'zaki nutqning boyligini aks ettiradi, balki ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari orqali tilning tarixiy rivojlanishi ham aniqlanadi. Qadimgi turkiy davrdagi materiallardan boshlab, XIX asr ilmiy dialektologiyasi va XX asr o'rta davridagi izlanmalar, mustaqillik davridagi zamonaviy tadqiqotlar shevalarning sistematik o'rganilishiga imkon yaratdi. Bu esa hududiy tafovutlarni, leksik boylikni va adabiy til bilan bog'liqlikni yanada aniqroq ko'rsatadi.

Shevalar adabiy tilning tarixiy ildizini tashkil etadi va milliy tilning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Hududiy fonetik va leksik tafovutlar xalq nutqining boyligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shevalarni sistematik o'rganish tilshunoslikda metodologik asos yaratadi.

Zamonaviy tadqiqotlar yordamida shevalarning saqlanishi, tahlil qilinishi va adabiy til bilan integratsiyasi yanada samarali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, shevalar milliy tilning tarixiy va zamonaviy boyligini aks ettiruvchi, lingvistik jihatdan mustahkam va amaliy ahamiyatga ega hodisa sifatida saqlanishi va o'rganilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda o'zbek shevalarini o'rganish uzoq tarixga ega bo'lib, qadimgi turkiy davrdan boshlab hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Mahmud Koshg'ariy davridan boshlab zamonaviy davrgacha bo'lgan ilmiy tadqiqotlar o'zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. XIX asrda turkiyshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar dialektologiyaning ilmiy asoslarini yaratdi. XX asrning o'rtalarida o'zbek shevalari keng miqyosda o'rganilib, ularning ilmiy tasnifi ishlab chiqildi. O'zbek shevalarini o'rganish milliy til siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Zamonaviy lingvistik metodlar asosida shevalarni o'rganish ishlari davom etmoqda. O'zbek shevalari milliy tilning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'rganish tilning tarixini, rivojlanishini va boyligini anglashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek shevalari korpusini zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rganish va saqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. 240 bet.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. – 256 bet.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: Fan, 1960. – 512 bet.

4. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1893. – 512 бет.
5. Reshetov V.V. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1966. – 232 bet.
6. Самойлович А.Н. Тюркская филология. – Ленинград, 1922. – 146 бет.